

FORS TILINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna
Oriental universiteti "O'zbek va sharq tillar"
kafedrasi katta o'qituvchisi Filologiya fakulteti
3-bosqich 206-guruh talabasi
Xikmatillayeva Shahzoda Dilmurod qizi
Tel: (+998)-93-359-21-16

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fors tilining bugungi kundagi ahamiyatini ko'rib chiqilgan. Maqolada afzalliklari kamchiliklari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek fors tilining ahamiyati bir necha faoliyat va o'rganishda namoyon bo'ladi. Fors tili bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiy, siyosiy va ilmiy sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlari: *Afzalliklari, xususiyatlari, faoliyat, o'rganish, globallashuv, iqtisodiy-siyosiy, fors tili, ahamiyat.*

Fors tili qadimiy va boy tillardan bo'lib, bugungi kunda ham xalqaro miqoyosda muhim hisoblanadi. Bu til Eron, Tojikiston va Avg'onistonning rasmiy tili bo'lib, umumiy hisobda 100 milliondan ortiq odamning ona tili sanaladi. Fors tili qadimdan ilmfan, adabiyot va madaniyat sohalarida muhim o'rin egallab kelgan bo'lib, bugungi kunda ham o'zining boyligi va jozibasi bilan alohida e'tiborga loyiq.

Fors tili nafaqat milliy, balki mintaqaviy va xalqaro darajada ham dolzarb. U sharq madaniyati va adabiyoti rivojiga ham ulkam hissa qo'shgan. Fors tilida yozilgan asarlar, masalan: Jaloliddin Rumiy, Sa'diy, Hofiz kabi shoirlarning yozib ketgan ijodiy durdonalari nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda o'qiladi. Fors tili Islom dunyosining ilmiy va falsafiy asarlarini tarqatishda asosiy omillaridan biri bo'lgan.

Eroniy tillar ba'zi bir fonetik va grammatik xususiyatlariga ko'ra g'arbiy va sharqiy guruh eroniy tillariga bo'linadilar: G'arbiy guruh eroniy tillarga fors, tojik, beluch, kurd va Kaspiy bo'yi tillari (gilon, mozandaron, semnon, tolsh, tot) va boshqa tillar kiradi. Sharqiy guruh eroniy tillariga esa afg'on, osetin, yag'nob va pomir tillari va boshqa tillar kiradi.² Fors tili forsiy-hind yevropa tillari oilasidagi eroniy tillar guruhining janubi-g'arbiy tarmog'iga mansub til, asosan Eron, shuningdek, Avg'oniston, Pokiston, Hindiston, Iroq, Birlashgan Arab Amirliklari, AQSHda, Kavkazorti va O'rta Osiyo mamlakatlarida ko'p tarqalgan.

² Muminova Nazokat. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti.

Fors tili o'zining ohandorligi, sinonimlarga boyligi va so'zlarning osonligi bilan vazn hamda qofiyaga tushishi sababli ko'pgina mamlakat shoir va olimlarini o'ziga jalab qiladi va qidqa davr ichida O'rta Osiyoning butun territoriyasiga, Ozarbijon va Hindistongacha yoyilib, forsiy tilda bu mamlakatlar xalqlari tomonidan boy adabiy va ilmiy asarlar yaratildi. Ko'pgina o'zbek shoirlari hatto XIX asrning oxiriga qadar o'z she'r asarlarini o'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham yozganliklari ma'lumdir. Shu kunlarda kunlarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik insituti qo'lyozmalar fondida saqlanib kelayotgan minglab eron, tojik, o'zbek, hind, ozarbijon va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan forsiy tilda yozib qoldirilgan minglab tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, falsafa, huquq, til va adabiyotga oid qo'lyozmalar va yuzlab shoirlarning devon va tazkiralari fikrimizning dalili bo'la oladi³. Bugungi kunda ham O'zbekistonning Navoiy, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo kabi hududlarida fors-tojik tilida gaplashadigan aholini uchratish mumkin. Fors tili Eron Islom Respublikasining rasmiy tili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1-moddasida O'zbekistonning dunyoviy davlat ekanligi e'tirof etilgan, 17-18-moddalarida olib boradigan tashqi siyosati haqida keltirilgan. O'zbekiston 1992-yilning 10-mayida Ashhobod shahrida imzolangan protokolda Eron Islom Respublikasi bilan do'stlik aloqalarini o'rnatgan va hozirda ushbu aloqalarni mustahkamlash maqsadida tegishli chora tadbirlarni ko'rmoqda. Masalan, yaqin 5 yil ichida fors tilini biladigan kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etayotganligi buning yaqqol misolidir. Bugungi kunda, ford tili dunyoning turli burchaklarida o'rganilmoqda. U madaniyat va tarixni o'rganishda muhim axamiyatga ega. Fors tili, o'zining boy tarixi va madaniy merosi bilan dunyo tillari orasida muhim o'rin tutadi. Inglizcha so'zlar fors tiliga kirib kelayotganligi ajablanarli jarayon emas. Bu jarayon Til akademiyasi kabi rasmiy muassasalar tomonidan uni jilovlashga qaratilgan doimiy olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, oqim to'xtamayabdi. Ingliz tilining fors tiliga ta'siri XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Biroq, u so'nggi o'n yilliklarda jadal rivojlandi, globallashuv tufayli, yangi texnologiyalar (internet, informatika), shuningdek, pop-madaniyat (videolar, filmlar, musiqa) orqali ham kirib keldi. Akademiya xorijiy so'zlarning kirib kelishiga qarshi kurashadi. U 1911 yilda fors tilini "himoya qilish" uchun tashkil etilgan. Akademiyaning asosiy faoliyati xorijiy umumiy yoki texnik atamalar uchun rasmiy forscha ekvivalentlarni yaratish va tasdiqlashdan iborat. Biroq bu tashkilot tomonidan yaratilgan ko'plab yangi so'zlar fors tilida so'zlashuvchilarning e'tiborini jalb qila

³ Malik Abdusamatov. Fors tili-Toshkent: Sharq 2007.B.13.

olmadi. ⁴. Bugungi kunda fors tili bir necha jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, o'z o'rnini saqlab qolmoqda. Bulardan:

1. Madaniy ahamiyati - adabiy meros, islom madaniyatidagi roli
2. Mintaqaviy siyosiy ahamiyati – geoaiyosiy rol, mintaqalararo aloqalar.
3. Iqtisodiy ahamiyati – energetika sektori, turizm va savdo.
4. Ilmiy va akademik ahamiyati
5. Global ahamiyati – diaspora va ta'sir doirasi, ko'p tillilik va o'rganish.

Bulardan Ilmiy va akademik ahamiyatiga to'xtalib o'tsak, fors tili tarix, lingvistika, san'at va falsafiy tadqiqotlar uchun muhim tillardan biridir. O'rta asrlardagi ko'plab ilmiy va diniy asarlar fors tilida yozilgan. Zamonaviy akademik tadqiqotlarda Eron va Markaziy Osiyoning tarixi, madaniyati va ijtimoiy jarayonlarini o'rganishda fors tili muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chet tillardan leksik birliklarning o'zlashishi mexanik jarayon emas, balki tillarning taraqqiyotiga bog'liq va deyarli barcha tillarga xosdir. Buning ortidan tillarning leksik boyligi yanada ortadi. Fors tili o'zining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida lug'at tarkibi turli xil o'zlashmalar bilan to'ldi. Hozirda ham bu jarayon fan va texnologiyalarning rivojlanishi, chegara bilmas ommaviy axborot vositalari va media mahsulotlarining kirib kelishi ortidan davom etmoqda. Shu bilan paralel ravishda, bu o'zlashmalarni kirib kelishini jilovlashga ham harakatlar ham izchil davom etmoqda. ⁵ Fors tilini o'rganish Sharq va G'arb o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki fors tili nafaqat tarixda balki hozirgi kunda ham keng miqiyosda o'z axamiyatiga ega hisoblanadi. Sharq tillari ta'limini rivojlantirish orqali yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash va xalqaro aloqalarni rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhmedova, D., Alimova, K., Azimdjanova, D., Nuriddinov, N., Azimbayeva, N., & Arifdjanov, Z. (2023). Polysemy of Simple Verbs in the Persian Language. language, 1, 3.
2. Azimbayeva, N. (2023). A COMPARATIVE STUDY OF SIMILES IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(22), 123-125.

⁴ “Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – B. 352

⁵ “Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – B. 354

3. Azimbayeva, N. (2023). CENTRAL ASIA AND KAZAKHSTAN IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ACADEMICIAN BA AKHMEDOV. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(6), 479-486.

4. Azimbayeva, N. (2023). Uzbek, Persian, Russian and English alternatives of wise words used in "Nazm ul-Javahir". *The Peerian Journal*, 19, 53-55.

5. Исматуллаева, Н. Р. (2022). Чет тили дарсларида интерактив доскадан фойдаланиш имкониятлари. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 96-98.

6. Ismatullayeva, N. R. (2022). Teaching Translation Methodology in the Foreign Language Classes. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(12), 448-452.

